



PAPER

## G'OIYIBIY ASARLARIDA DINIY-FALSAFIY VA IJTIMOYIY LEKSIKANING ROLI

Boboqulova Hkoyat Bobur qizi <sup>1</sup> \*

<sup>1</sup>Navoiy davlat universiteti 2- kurs magistranti

\* boboqulova54@mail.ru

### Abstract

Ushbu maqolada ijodkorning yaratgan adabiy merosiga oid namunalardan parchalar atroflicha yoritilgan. Bunda G'oyibiyning diniy ruhdagi ijodidan istilohlar keltirilgan ijodidan misralar asosiy obyekt qilib olinib, undagi leksik birliklarning polisemantik, sinonimik va antonimik xususiyatlari ochib berilgan.

**Key words:** Antroponimlar, sinonim qatlam, O'TIL, yadro, polesemantik maydon, ot so'z turkumi.

### Kirish

Olam va odam yaralgandan buyon insoniyat tabiat va jamiyat qonunlarini o'zlashtirishga intilib yashaydi. Bu o'rinda ajdodlardan qolgan ma'naviy meros ulug' qadriyat hisoblanib, ular bilan muntazam tanishib borish inson uchun keng imkoniyatlar kaliti bo'lib xizmat qiladi. Zero, Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev "Oliy Majlisga qilgan muurojaatnomalarida ta'kidlaganidek, faqat ma'rifatgina insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi". Ana shunday meroslardan biri taxminlarga qaraganda, yashash joyi Buxoroning Qorako'lida tug'ilib ijod etgan Shayx Mahmud G'oyibiyning diniy-falsafiy yo'nalishdagi boy ijodi hisoblanadi.

Shayx Mahmud G'oyibiy (XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII asr boshlari) o'zbek mumtoz

adabiyotida o'ziga xos o'rin egallagan so'fiy shoirlardan biridir. U asosan diniy-irfoniy mazmundagi she'rlari bilan tanilgan.

"G'oyibiy" taxallusi shoirning tasavvufiy qarashlari bilan bog'liq: "g'oyib" so'zi tasavvufda ruhiy sir, yashirin olam, Allohni "g'ayb"da tanish ma'nolarini beradi.U so'fiylik tariqatiga mansub bo'lgan, she'rlari orqali xalqqa ma'rifat va axloqiy poklik g'oyalarini targ'ib qilgan.

G'oyibiyning she'rlari diniy, ma'rifiy va tasavvufiy ruhda bo'lib, Qur'on oyatlari, hadislar hamda payg'ambarlar, avliyolar siymosi tez-tez tilga olinadi.

Mutasavvuf shoir ijodi o'zbek tasavvuf adabiyotida muhim o'rin tutadi. Uning she'rlari, pand-nasihathidagi hikmatlari diniy-falsafiy qarashlari, ijtimoiy hayotga munosabat hamda axloqiy tarbiya g'oyalarini o'zida mujassam

Compiled on: November 1, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

etadi. Shu jihatdan unda diniy-falsafiy va ijtimoiy leksika alohida ahamiyat kasb etadi. Quyida shoir ijodiyotining lingvistik tadrijini birgina g'azal namunasida batafsil yoritamiz.

Yuz yigirma to'rt bori kechgan rasul ham anbiyo,  
Ko'hi Turda ummatga orzu Kalomullohdir.

Kim iqrar aylamas bo'lsa, uni barhaq bilib,  
Ikki dunyoda biling ta'qiq ani gumrohdir.

Rahmatun-la lamindir ham shafiq' il-muzhabin,  
Jumla xalqning dardina kelgan Habibullohdir.

Bu shariat haddi Ibrohim turar, ey, G'oyibiy,  
Ham otasi tabug' bo'lgan Habibullohdir.

Yuqorida keltirilgan g'azal namunasini lingvistik tasniflar ekanmiz ot so'z turkumiga oid leksik birliklarning turli ottenkalarda namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Aksariyat leksemalar din va falsafaga oid termenlardan tashkil topgan. G'oyibiyning bu g'azali lingvokulturolik aspekt bo'lib, olamning lisoniy manzarasini yaratishda dominant vazifa bajargan.

Asarda keltirilgan **islomiy atamalar**: Qur'on, hadis, namoz, ro'za, haj, zikr, taqvo, tavba kabi aniq va mavhum otli lingvistik birliklar ruhiy-ma'naviy poklanish g'oyalarini ifodalashda foydalanilgan.

**Tasavvufiy tushunchalar**: "Fano", "baqo", "vahdat", "ishq ilohiy", "pir", "murid", "suluk" kabi polesemantik terminlar Allohga yetishish yo'lida qay darajada turmoqlik va qanday amallarni bajarmoqlikni ifodalab keladi. "Pir", "Suluk", "Murid" leksemalari semantik uya hosil qilib, bu so'zlar yadrosini "Pir", preferiyasini esa "Suluk" va "Murid" terminlari egallaydi. "Pir" leksemasi o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha sema hosil qiladi.

**1. Uzoq umr ko'rgan kishi; kekxa (qari). 2. Diniy mazhab boshlig'i, diniy rahbar.**

• Xudo xohlab, pirlar madadkor-u aziz avliyolar qo'llab yuborsa, hammasini daf qilamiz. X. To'xtaboyev, *Shirin qovunlar mamlakati*

• Qoch, yo'lni bo'shat, pirim kelyaptilar! deb kimgadir o'shqirgan K. Yashin, *Hamza*

• Arvohlar yor, pirlar madadkor bo'lib, ovimiz baroridan kelsin. *Hamza, Tanlangan asarlar*

**3. Biror kasbning asoschisi, homiysi deb tushuniladigan, ko'pincha, afsonaviy va afsonalashirilgan shaxs.**

• Miskarlar, chegachilar, tunukasozlar ko'p antiqa gaplarni, har qaysilari o'zlarining pirlarini, risolalarini yaxshi biladilar. *Oybek, Bolalik.*

**4. ko'chma Biror ish, kasb yoki sohani juda yaxshi egallagan, shu sohada o'ta mohir usta kishi, ustoz.**

• Bunday rahbarlar, go'yo hamma sohaning piri hisoblanadilar. N. Aminov, *Yolg'onchi farishtalar*

• — Bolang boy bo'lgur Shodi oshpaz bu kasbning zap piri-da! — cholning tarifini keltirishadi chinorliklar *Yoshlik*

• Ular o'rni kelsa, otasi ekan-u, hatto piring ham betiga qorakuya chaplab, maqsad sari talpinadi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan (2-raqam) diniy istiloh sifatida keltirilgani g'oyibiy asarlarida denotativ ahamiyat kasb etadi.

Alloh va payg'ambar ismlari antroponimik xususiyat kasb etadi. "Haqq", "Rasul", "Mustafo", "Ibrohim", "Habibulloh" kabi diniy obrazlar shoirning ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini ko'rsatishda denotativ sema yuklaydi. Falsafiy leksemalar esa borliq va inson mohiyatini uzviylikda yoritishga xizmat qilgan. "Jahon", "olam", "ruh", "vujud" kabi sinonimik birliklar inson hayotining ma'naviy va ontologik asoslarini izohlashga xizmat qilgan. Ezgulik va yovuzlik mavhum semantik birliklarning qo'llanilishi esa ijodkor maqsadini to'la yoritishda go'yoki bir qurol bo'lib xizmat qilgan. "Nafs", "gunoh", "savob", "sabr", "haqiqat", "adolat" kabi birliklar falsafiy-estetik ma'noda ishlatilgan.

"Hikmat", "ilm", "ma'rifat", "haqiqat" kabi so'zlar insonni kamolot sari undash uchun asosiy kalit vazifasini bajaradi.

Sotsiolingvistik jihatdan asar mazmunini boyitishga xizmat qilgan "Faqr", "boy", "bek", "amir", "xalq", "do'st", "dushman" kabi antonimik birliklar esa ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik masalalariga munosabat bildirishda ishlatiladi. "Vafo", "sadoqat", "mehr", "shafqat", "ilm ahli", "piru ustoz" kabi aksiologik birliklar jamiyatda ma'naviy uyg'unlikni ta'minlovchi qadriyatlarini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda bu birliklar sinonlarning semantik maydonini ham hosil qiladi. Biroq bu birliklar shakl va ma'no mohiyatida farqlidir. Quyida esa "Vafo" va "Sadoqat" leksemalarining o'TILda anglatgan ma'nolarning differensiyasini ko'rib chiqamiz. "Vafo"

**1. Yorga, do'stga, yaqin kishilarga sadoqat; o'z**

**ahd-paymonini muqaddas tutish; so'zda, va'dada qat'iy turish.**

- Yaxshidan vafo— yomondan jafo. *Maqol*

- Va'daga vafo — mardning ishi, va'dasiz — subutsiz kishi. *Maqol*

- Avvalda olib ko'nglim chin ahd-u vafo birlan, Oxirda jafolarga hamxona qilib ketdi. *Hamza, Paranjli sirlari*

**2. Ba'zi ish, uy hayvonlarining egasiga sadoqatiga nisbatan qo'llanadi.**

- Maqol to'qiydilar moslab o'ziga, Masalan, it — vafo, deydilar hayhot. *A. Oripov, Yillar armoni*

- Ot vafosi to'g'risidagi otalar naqli ikki raqibning ot ustidagi jangida sinaldi. *N. Safarov, Olovli izlar*

**“Sadoqat”**

**1. Chin qalbdan berilganlik; sodiqlik, vafodorlik.**

- O'g'lon, oqil ham mard bo'lg'in, Mardlik — elga sadoqat. *E. Vohidov, Nido*

- Gulnor chuqur sadoqat ifoda etgan ko'zlari bilan yigitga qaradi *Oybek, Tanlangan asarlar*

Shiddat bilan rivojlanayotgan yurtimizda raqamli texnologiya ham o'zining kulminatsion nuqtasiga yetib kelmoqda. Quyida esa sun'iy intellekt ifodalagan “vafo” va “sadoqat” atamalarining semantik farqlanishini tahlil qilamiz

**1. Vafo**-asosiy ma'no: berilgan va'daga, qasamga, ahdga sodiq qolish, uni buzmaslik. Qo'llanish sohasi: ko'proq shaxsiy munosabatlarda — sevgi, do'stlik, qarindoshlik yoki ustoz-shogird rishtalarida ishlatiladi. Semantik doirasi: “vafo” — vaqt o'tishi davomida va'da va ahdlarni unutmaslik, ularni amalda bajarish bilan bog'liq.

**2. Sadoqat**-asosiy ma'no: chin dildan sodiq bo'lish, xiyonat qilmaslik, qat'iyatli va doimiy mehr-muhabbatni saqlash. Qo'llanish sohasi: kengroq — nafaqat shaxsiy munosabatlarda, balki vatan, g'oya, kasb, e'tiqod kabi yuksak qadriyatlarga nisbatan ham qo'llanadi. Semantik doirasi: “sadoqat” — ichki ishonch, ruhiy sodiqlik va qat'iyatni ifodalaydi. Sinonimlariga yaqin: fidoyilik, vafodorlik, chinlik, xolislik.

Vafo – ko'proq va'da va ahdni bajarishga qaratilgan amaliy sodiqlik. Sadoqat – kengroq va chuqurroq tushuncha bo'lib, qalbdagi sodiqlik, xiyonatsizlik va fidoyilikni anglatadi. Demak, vafo — xatti-harakatlar orqali namoyon bo'ladi, sadoqat esa qalb va ruhiy dunyo bilan bog'liq. Masalan, “U sevganiga vafo qildi” (ahdini buzmay, so'zida turdi). “U Vatanga sadoqat bilan xizmat qildi”

(fidoyilik, xiyonatsizlik, chinlik). G'oyibiy ba'zan mansabparastlik, riyo, nodonlikni tanqid qilib, ijtimoiy leksikani o'z asarlarida faol ishlatgan.

Shayx Maxmud G'oyibiy asarlarida diniy-falsafiy leksika insonning ma'naviy komillikka yetishi uchun, ijtimoiy leksika esa jamiyatdagi muammolarni ko'rsatib, odob-axloqni targ'ib qilish uchun xizmat qiladi. Shu bois uning ijodi nafaqat tasavvufiy, balki ijtimoiy-falsafiy manba sifatida ham qimmatga ega. G'azal didaktik va targ'ibiy xarakterda bo'lib, xalqni iymon va shariatga sodiqlikka chorlaydi. Bu g'azalning lingvistik tahlili shuni ko'rsatdiki, unda diniy va tasavvufiy leksika ustun bo'lib, sintaktik jihatdan parallelizm asosida qurilgan, uslubiy jihatdan esa Qur'oniy ishoralar, polesemantik, sinonimik va antonimik birliklar orqali kuchli ta'sirchanlikka erishilgan. Shoir pragmatik maqsad sifatida Rasulullohni ulug'lash va xalqni iymonga chorlashni ko'zlagan. Faylasuf o'z oldiga inson muammosini islom ruhiy madaniyati kontekstida yechishni maqsad qilib qo'yan. Shu bilan birga insonning o'zga diniy falsafiy konsepsiyalarini gumanistik (insonparvar) jihatlar bilan ko'rib chiqadi. U ko'plab diniy-falsafiy doktirinalarning bosh maqsadi bo'lgan inson takomili va “qutqaruvi”ga ba'zi holatlarda erishilgani, ba'zilarida aks natijaga ega bo'lganini ta'kidlab o'tadi. G'oyibiy “haqiqiy” islom ta'limotiga murojaat qilar ekan, payg'ambar Muhammad s.a.v ning buyuk nomlarini asariga kiritishdan boshlaydi.

O'n sakkiz ming olaming faxri Rasulullohdir,  
Asli zoti, pok-ovoz, nuri-vajhi Oллоhdir.

Dinimiz Islom, Robbimiz Alloh, payg'ambarimiz Rasululloh, kitobimiz Qur'on singari diniy ta'limotlar shu birgina g'azal misolida batafsil ochiqqlangan. G'oyibiy ta'kidlashicha, zamonaviy sotsiyumida (jamiyatida) insonning muhim jihatlaridan bo'lgan va o'zida muqaddas nomoddiy substansiyani saqlaydigan “oliy mavjudot”lik unitilgan. Asarlarida insonni nafsdan tiyilish, diyonat, mehr-muhabbat, adolat va sabr-qanoatga da'vat etuvchi mazmun ustuvorlik qilgan.

## Xulosa

Xulosa qilganda, G'oyibiy ko'p qirrali ijodkordir. U faqat din doirasidagina fikrlamay balki zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega inson ekanligini ham ko'rishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Shayx Mahmud G'oyibiy. Ka'ba yiqmaktir, ko'ngilni vayron aylamak. -Toshkent, 2017
2. Hojiyev.A.O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. -Toshkent: O'qituvchi, 1974.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. I, II, III, IV, V tomlar. -Toshkent: O'zbekiston, 2021.